

**O'ZBEKISTONDA SHAXS IQTISODIY XAVFSIZLIGINI  
TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING AHAMIYATI**

*Rustamov A'zamjon Baxromjon o'g'li*

*Magistratura talabasi, O'zbekiston Respublikasi*

*Jamoat Xavfsizligi Universiteti*

*E-mail: mcdonald0498@gmail.com*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekistonda shaxsiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda sug'urta xizmatlarining roli va ahmiyati tahlil qilinadi. Sug'urta xizmatlari shaxslarning kutilmagan moliyaviy yo'qotishlardan himoyalanishini, shuningdek, ularning daromad barqarorligini saqlashga yordam beradi. Sug'urta xizmatlarining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri, shaxslarning moliyaviy barqarorligi, ijtimoiy himoya tizimi va jamiyatda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish, mavjud xizmatlar turlari va ular orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari haqida ma'lumot beriladi. Maqola O'zbekiston sharoitida sug'urta xizmatlarining ahmiyatini va uning iqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasini chuqur tahlil qilib, aholining iqtisodiy himoyasini oshirishda davlat va sug'urta kompaniyalarining roli haqida tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar:** shaxs iqtisodiy xavfsizlik, umumiyligida sug'urta, hayot sug'urta, sug'urta mukofoti, sug'urta tovoni.

**IMPORTANCE OF INSURANCE SERVICES IN ENSURING PERSONAL  
ECONOMIC SECURITY IN UZBEKISTAN**

Rustamov Azamjon Bahromjon oglu

Master's student, Public Safety University of the Republic of Uzbekistan

E-mail: mcdonald0498@gmail.com

**ABSTRACT**

This article analyzes the role and importance of insurance services in ensuring personal economic security in Uzbekistan. Insurance services help protect individuals from unexpected financial losses as well as maintain their income stability. The impact of insurance services on economic security, financial stability of individuals, social protection system and role in the formation of security culture in society is considered. Also, information is provided about the development of the insurance market in Uzbekistan, the types of available services and the possibilities of providing economic security through them. The article deeply analyzes the importance of insurance services in the conditions of Uzbekistan and its contribution to economic stability, and makes

recommendations about the role of the state and insurance companies in increasing the economic protection of the population.

**Key words:** personal economic security, general insurance, life insurance, insurance premium, insurance compensation.

## ЗНАЧЕНИЕ СТРАХОВЫХ УСЛУГ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЛИЧНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

---

Рустамов Аъззамжон Баҳромжон ўғли

Магистрант, Республика Узбекистан

Университет общественной безопасности

E-mail: mcdonald0498@gmail.com

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль и значение страховых услуг в обеспечении экономической безопасности личности в Узбекистане. Страховые услуги помогают защитить граждан от непредвиденных финансовых потерь, а также сохранить стабильность доходов. Рассмотрено влияние страховых услуг на экономическую безопасность, финансовую устойчивость личности, систему социальной защиты и роль в формировании культуры безопасности в обществе. Также представлена информация о развитии страхового рынка в Узбекистане, видах доступных услуг и возможностях обеспечения экономической безопасности с их помощью. В статье глубоко анализируется значение страховых услуг в условиях Узбекистана и их вклад в экономическую стабильность, а также даются рекомендации о роли государства и страховых компаний в повышении экономической защиты населения.

**Ключевые слова:** экономическая безопасность личности, общее страхование, страхование жизни, страховая премия, страховое возмещение.

### Kirish

O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanish yo‘lida bo‘lib, bu jarayonda aholining shaxsiy iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik, asosan, shaxs va ularning oilalarining daromad manbalarini saqlash, kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlardan himoyalanish va turmush darajasini saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali ta’minlanadi. Ushbu jarayonda sug‘urta xizmatlari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular fuqarolarni turli xil moliyaviy xavflar va qiyinchiliklarga qarshi himoya qiladi. Sug‘urta xizmatlari shaxsiy mulkni, sog‘liqni, mehnatga layoqatsizlikni va hayotni sug‘urtalash orqali fuqarolarning xavfsizligini ta’minlab, ularning kelajakdagi moliyaviy barqarorligini saqlashga yordam beradi.

O‘zbekiston sug‘urta bozori hali rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, aholining sug‘urtaga bo‘lgan ehtiyoji va qiziqishi ortib bormoqda. Bu sug‘urta xizmatlarining aholining turli ijtimoiy qatlamlari uchun mavjudligini oshirish va ularning sifatini yaxshilashni talab qiladi. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada O‘zbekistonda shaxsiy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda sug‘urta xizmatlarining o‘rnini va ahamiyati, ularning iqtisodiy barqarorlikka qo‘shadigan hissasi hamda mavjud muammolar va rivojlanish imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi. Maqola shuningdek, sug‘urta xizmatlarining shaxsiy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashdagi rolini chuqurroq tushunish va aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirish uchun zarur bo‘lgan strategiyalarni tahlil qilinadi.

### **Mavzuning o‘rganilganlik darajasi**

Sug‘urtaning o‘ziga xos xususiyatlari, mohiyati qator olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Sug‘urta sohasidagi Rossiyalik taniqli olim R.T. Yuldashevning fikriga ko‘ra, “sug‘urta” tushunchasi uni qo‘llashning nazariy va amaliy tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan quyidagi to’rtta bazaviy xususiyatga ega, deya ta’riflaydi:

- 1) ijtimoiy munosabatlar tizimi;
- 2) faoliyat turi;
- 3) biznes turi;
- 4) mulkiy manfaatlarni himoya qilish usuli [1].

Taniqli rossiyalik olim N.B. Grishenkoning quyidagi so‘zlarini keltirish joizdir: “Sug‘urta hozirgi zamon iqtisodiy voqeligining mustaqil va o‘ziga xos sohasi bo‘lib, uning paydo bo‘lish, amal qilish va rivojlanish printsiplari iqtisodiy nazariyalar va qarashlarda o‘z aksini topadi” [2].

Rossiyalik tadqiqotchi T.A. Merebashvili o‘z tadqiqotlarida quyidagi xulosaga keladi: “sug‘urtada tijorat va o‘zaro yordam tushunchalarining uyg‘unlashuvi shunday xulosa qilishga imkon beradi, ya’ni o‘z tabiatiga ko‘ra tijoratga asoslangan sug‘urta bir vaqtning o‘zida o‘zaro yordam xususiyatiga ega bo‘lishi va o‘zaro sug‘urta bir vaqtning o‘zida tijorat xususiyatlarini ham o‘zida mujassamlashtirishi kerak, aks holda, u sug‘urta emas” [3].

Sug‘urta bozorining rivojlanish nazariyasi muammolari Y.T. Axvediani, N.B. Grishchenko, S.V. Ermasov, Y.A. Spletuxin, T.A. Fedorov, A.K. Shixov, V.A. Sherbakov, R.T. Yuldashev, K.R. Makkonnell, S.L. Bryu kabi olimlarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

A.K. Shixovning fikriga ko‘ra, sug‘urta bozori bu kutilmagan hodisalar yuzaga kelganda mulkiy qiziqishlari himoyalananashiga muhtoj bo‘lgan sug‘urta qildiruvchilar (sug‘urtalangan shaxs, naf oluvchi) hamda mana shu himoyani to’langan sug‘urta mukofotlaridan tashkil etilgan sug‘urta fondi hisobidan amalga oshiradigan sug‘urtalovchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimidir[4].

R.T. Yuldashev esa sug‘urta bozoriga quyidagicha ta’rif bergan: sug‘urta bozori -

bu sug'urta himoyasiga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini qondirish jarayonida sug'urta qoplamasini sotib olish va sotish bo'yicha yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir [5].

K.R. Makkonnell va S.L. Bryularning ta'rifiga ko'ra sug'urta bozori – bu sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchining sug'urta xizmatlari bilan bog'liq qiziqishlarini birlashtiruvchi iqtisodiy mexanizmdir[6].

O'zbekistonning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini belgilash va xalqimizga farovon turmush tarzini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 fevraldag'i farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi" tasdiqlandi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Shularni e'tiborga olgan holda, Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishda bir necha vazifalar belgilanib olindi. Shulardan biri sug'urta va lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishdir.

Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qaroriga asosan 24.06.2008-yildagi 141-sonli "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish" va 24.06.2008-yildagi 177-sonli "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish" va boshqa majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari aholi uchun qulaylik va moliyaviy xavf tug'ilganda ularga yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024-yildagi PQ-108-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlatirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaroriga binoan sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, zamонавиъ axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali sug'urta xizmatlarining ommabopligini va sifatini oshirish, shuningdek, sohani tartibga solishni yanada takomillashtirish choralarini ko'rishni asosiy maqsad qilib qo'yilgan.[7]

2024-yil 1-sentabrdan boshlab shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

sug'urtaning barcha turlari bo'yicha sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazish va sug'urta polislarini ushbu tizim orqali rasmiylashtirish majburiy hisoblanadi;

barcha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta polislarini faqat qog'oz shaklda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinadi;

sug‘urta polislarini yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali rasmiylashtirmaslik ularni haqiqiy emas deb topishga asos bo‘ladi hamda sug‘urtalovchi tomonidan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo‘pol ravishda buzish hisoblanadi. Bu esa aholimiz uchun bir qator qulayliklar yaratadi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish yurtimizning makroiqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdagi eng muhim tamoqlardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda sug‘urta bozorini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar muayyan darajada, mamlakat sug‘urta bozorini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo‘lsada, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda sug‘urta bozorini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish sug‘urta munosabatlarini rivojlantirishga va mamlakatda ishlab chiqarish uzlusizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda sug‘urta sohasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib bormoqda. Yurtimizda sug‘urta kompaniyalari soni yildan yilga ortib bormoqda. 2023-yillar 6 oylik yakunlarida ko‘ra 49 ta sug‘urta kompaniyalari faoliyat yuritib kelmoqda, shulardan 41 tasi umumiy sug‘urta sohasi 8 tasi hayot sug‘urtasi sohasi kompaniyalari hisoblanadi. Lekin 2024-yil oylik yakunlariga ko‘ra, 40 ta sug‘urta kompaniyalari faoliyat yuritib kelmoqda, shulardan 35 tasi umumiy sug‘urta sohasi 5 tasi hayot sug‘urtasi sohasi kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Quyidagi jadval orqali O‘zbekiston sug‘urta bozorining tuzilishi bo‘yicha o‘zgarishlarni ko‘rib chiqamiz.

### 1-jadval.


#### O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining tuzilishi

Sug‘urta bozori tuzilishi	30.06.2023	30.06.2024	O‘zgarish (+/-)
Sug‘urta tashkilotlari soni	41	35	-14,6%
<i>shu jumladan hayot sug‘urtasi bo‘yicha</i>	8	5	-37,5%
Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so‘mda)	2 124 918	2 347 399	+10,5%
Sug‘urta brokerlari soni	7	10	+42,9%
Aktuariylar soni	5	5	0%
Sug‘urta agentlari soni	5 207	4 161	-20,1%
<i>shu jumladan yuridik shaxslar</i>	1 655	1 449	-12,4%
To‘lovlarни kafolatlash jamg‘armasi a’zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlarining soni	25	25	0%

Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, umumiy va hayot sug‘urta sohasidagi sug‘urta kompaniyalari 14,6% va 37,5% ga kamaygan. Sug‘urta bozoridagi sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali sezilarli darajada, ya’ni 10,5% ga oshgan.

Sug'urta brokerlari soni 3 taga ko'paygan. Sug'urta agentlari soni esa 20,1% ga kamaygan, jumaladan yuridik shaxslar 12,4% ga kamaygan. To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lган sug'urta tashkilotlari soni o'zgarishsiz qolgan.[8]

Ma'lumki sug'urta kompaniyalarining asosiy daromad manbayi bu sug'urta mukofotlari hisoblanadi. O'zbekiston sug'urta bozorida so'nggi to'rt yilga nazar tashlaydigan bo'lsak sezilarli darajadagi o'sish dinamikasiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Umumiyligi sug'urta sohasidagi yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi so'nggi to'rt yilda jadal sur'atlarda o'sgan. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizsda sug'urta xizmatlariga bo'lган talab yildan yilga jadal o'sib borayotganidan dalolat beradi. 2020-yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 1 879 346 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 59,4 % ga o'sib 2 995 707 mln. so'mga yetgan. 2022-yilda esa 56% ga o'sib 4 672 270 mln. so'mga yetgan va 2023-yilda 65,6% lik o'sishga erishlib jami 7 737 236 mln. so'mlik sug'urta mukofotlari yig'ilgan. [9]



**1-rasm. Umumiyligi sug'urta sohasidagi sug'urta mukofotlari dinamikasi (mln. so'mda).**

Sug'urta xizmatlariga bo'lган talabning oshishi, ushbu xizmatlarga bo'lган ishonchga bevosita bog'liqdir. Bu esa sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta to'lovlarning vaqtida amalga oshirilishi zarurligini bildiradi. Mamlakatimiz sug'urta bozorida ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham so'nggi yillardagi o'sish sur'atlarini kuzatishimiz mumkin.

2020-yilda umumiyligi sug'urta sohasidagi sug'urta kompaniyalari tomonidan jami 419 628 mln. so'm sug'urta to'lovlari to'lab berilgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 45,4% ga o'sib 609 953 mln. so'mga yetgan. 2022 yilda esa yana 77,5 % ga o'sib 1 087 567 mln. so'mga yetgan va 2023 yilda 44,2% ga o'sib 1 568 461 mln. so'mga yetgan.[10]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024-yildagi PQ-108-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlatirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori sug‘urta xizmatlari iste’molchilari manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydigan qonunchilik bazasini yaratishga, shuningdek sug‘urta bozorini tartibga solishning xalqaro standartlari asosida sohani tartibga soluvchi normativ hujjatlarni takomillashtirishga (Insurance core principles) qaratilgan bo‘lib, bunda sug‘urtalovchilarining tabaqalashtirilgan ustav kapitalining eng kam miqdorlariga hamda sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) va sug‘urta brokerlarining litsenziyalash talablari va shartlariga o‘zgartirishlar kiritiladi hamda Yagona axborot tizimi orqali sug‘urtaning barcha turlari bo‘yicha sug‘urta polislarini rasmiylashtirish qoidalari va shartlari joriy etilmoqda.

Sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi organning asosiy vazifalaridan biri sug‘urta xizmatlari iste’molchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Agentlikka kelib tushayotgan murojaatlar asosida, sug‘urta tashkilotlari tomonidan sug‘urta tovoni to‘lanishini nazorat qilish choralar ko‘rilmoxda.

2023 yilning sentyabr-dekabr oylari davomida Agentlikning tegishli Departamenti tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning jami 1 447 ta 1 090 murojaati ko‘rib chiqilib tasi qanoatlanirilib , ulardan , 7,9 mlrd so‘m miqdorida sug‘urta tovoni to‘landi.[11]

### **Xulosa va takliflar**

O‘zbekistonda shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda sug‘urta xizmatlarining ahamiyati haqida xulosa va takliflar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash: Sug‘urta xizmatlari shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning muhim vositalaridan biri bo‘lib, u kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlar va xavf-xatarlardan himoya qilish imkonini beradi. Sug‘urta jamiyatdagi turli toifadagi shaxslarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Sog‘lijni saqlash va hayotni himoyalash: Tibbiy sug‘urta va hayot sug‘urtasi orqali odamlar sog‘liq bilan bog‘liq kutilmagan xarajatlarni qoplash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularning moliyaviy xavfsizligini oshiradi.

3. Investitsiyalarni rag‘batlantirish: Sug‘urta xizmatlari biznesni rivojlantirish va investitsiyalarni jaib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Sug‘urta kompaniyalari tomonidan taqdim etiladigan kafolat va himoya choralaridan foydalananish orqali biznes sub'ektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar o‘z faoliyatlarini xavfsiz va barqaror amalga oshirishi mumkin.

4. Ijtimoiy barqarorlikni saqlash: Sug‘urta xizmatlari aholining ijtimoiy zaif qatlamlari (masalan, kam ta’minlangan oilalar, nogironlar) uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda ijtimoiy yordam vazifasini bajaradi. Bu davlatning ijtimoiy siyosatini kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

**Takliflar:**

1. Sug‘urta bozorini rivojlantirish: Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish lozim. Shu jumladan, qishloq joylarida ham sug‘urta xizmatlarining mavjudligini ta‘minlash uchun yangi sug‘urta mahsulotlari va xizmatlarini taklif etish zarur.
2. Sug‘urtani ommalashtirish bo‘yicha targ‘ibot: Aholi o‘rtasida sug‘urta xizmatlarining ahamiyatini tushuntiruvchi keng qamrovli axborot-targ‘ibot ishlarini olib borish kerak. Bu orqali fuqarolarning sug‘urtaga nisbatan ijobjiy munosabatini shakllantirish va sug‘urtaga bo‘lgan talabni oshirish mumkin.
3. Texnologiyalardan foydalanish: Raqamli texnologiyalar va onlayn xizmatlarni joriy etish orqali sug‘urta xizmatlarini soddalashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu aholining har bir qatlami uchun sug‘urtaga kirish imkoniyatini oshiradi.
4. Qonunchilikni takomillashtirish: Sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali sug‘urta kompaniyalarining barqaror faoliyatini ta‘minlash va aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirish mumkin.
5. Sug‘urta xizmatlarini diversifikatsiya qilish: Sug‘urta xizmatlarining turlari va shakllarini diversifikatsiya qilish, ya’ni turli sohalar va xavf-xatarlarga mos keluvchi maxsus sug‘urta turlarini rivojlantirish aholi va biznes sub’ektlarining maxsus ehtiyojlariga yanada moslashgan sug‘urta xizmatlarini taqdim etishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Юлдашев Р.Т. Очерки теории страхования: ретроспективный анализ развития. - М.: Анкил, 2015. С. 89
2. Грищенко Н.Б. Понятие страхового фонда в современной рыночной экономике. Страховое дело. 2012. №11.
3. Меребашвили Т.А. Правовые проблемы взаимного страхования ответственности судовладельцев. - СПб.:Издательский дом С. Петерб.гос.унта, 2014 г. С.17
4. А.К. Шихов. Страхование: учебник / Под ред. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2019.
5. Юлдашев Р.Т. Страховой бизнес. Словарь–справочник. М.: Анкил, 2015. С. 832.
6. К.Р. МакКоннелл, С.Л. Брю. Развитие коммерческого страхования в постцентрализованной экономике: методология и практика. Диссертация на соискание Д.Э.Н. – Екатеринбург, 2017

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024-yildagi PQ-108-sonli “Sug’urta xizmatlari bozorini yanada rivojlatirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori
8. Napp.uz ning 2024-yil ma’lumotlari asosida shakllantirildi.
9. Кўлдошев, Қ. (2023). Ўзбекистон сұғурта бозори: ривожланиш йўналишлари ва муаммолар. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 1 – 4.  
[https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss4/55](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss4/55)
10. Баратова , Д. (2024). Ҳаёт сұғуртасининг аҳоли ижтимоий ҳимоясини таъминлашдаги ўрни. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 14 – 16.  
[https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss7/111..](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/111..)
11. Napp.uz ning 2024-yildagi 2023-yil hisobotlarilari asosida shakllantirildi.